

**MAMLAKATIMIZ AHOLISINI XAVFSIZ OZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHDA YOG'-MOY SANOATINING  
O'RNI**

*Jovliyeva Shahzoda Jahongir qizi*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrисабз filiali talabasi*

*jovliyevashahzoda36@gmail.com*

*Tel: +998883872511*

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz aholisini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda yog'-moy sanoatining o'rni, aholimizni yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talab.

**Kalit so'zlar:** Yog'-moy,oziq-ovqat, mahsulotlar,xavfsizlik

**Kirish:**

**Yog'-moy sanoati** oziq ovqat sanoatining o'simlik moyi ishlab chiqarish yog'larni tozalash, gidrogenlash, dezodaratshiyalash, gliserin, margarin,mayonez, xo'jalik sovunlari,sintetik moy kislotalari asosida kir yuvish vositalari,aliflar va boshqa mahsulotlar tayyorlashni o'z ichiga oladigan tarmog'i. O'zbekistonda yog' moy sanoati oziq ovat sanoatining yetakchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan oziq ovqat sanoati umumiyligi mahsuloti hajmining 40% ga yaqinini beradi. Shuningdek mamlakatimizda bu borada bir qator qaror va dasturlar qabul qilingan, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Yog'-moy tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari tog'risida**" 2018yil 19 yanvardagi PQ-3484 sonli qarori fikrimizning tasdig'idir. Bugungi kunda Respublikamizda sog'lom raqobat muhitni rivojlantirish va keng turdag'i yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarilishini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mazkur tarmoqdagi mavjud tizimli muammolarga barham berish bozorni sifatli ,xavfsiz, arzon.oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va butun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashningeng muhim sharti hisoblanadi.Shu bilan birga,xom ashyo bazasining cheklanganligi,jumladan muqobil yog' olinadigan ekinlardan yetarlicha foydalanmaslik yog'-moy korxonalarining mavjud ishlab chiqarish

quvvatlarini to'liq ishga solishni ta'minlashva bozorning sifatli yog'-moy mahsulotlariga bo'lган talabini qanoatlantirish imkonini chegaralab qo'ymoqda.[1]

O'zbekiston Respublikasida Yog'-moy sanoati rivojlanishi paxta yetishtirishning o'sishi bilan bog'liq bo'lgani sababli yog'-moy korxonalari xom ashyoga yaqin yerlarga qurilgan va respublikaning hamma viloyatlarida (Navoiy viloyatidan tashqari) mavjud. O'zbekistonning zamonaviy Yog'-moy sanoatida yiliga 3,5 million tonna chigit va boshqa moyli o'simliklar urug'larini qayta ishslash quvvatiga ega bo'lgan 21 korxona ishlaydi (2001). Korxonalar "Yog'moytamakisanoat" uyushmasi tarkibiga kiradi, tarmoqdagi eng yirik korxonalar: "Yangiyo'l yog'-moy", "Kattaqo'rg'on yog'-moy", "Buxoro yog'ekstraktsiya", "Qarshi yog'ekstraktsiya", "Qo'qon yog'-moy", "Farg'ona yog'-moy", "Andijon yog'-moy", "Asaka ekstraktsiya", "Uchqo'rg'on yog'ekstraktsiya", "Namangan yog'ekstraktsiya", "Toshmargyog" (Toshkent shahri), "Surxon oziqovqatsanoat" (Denov shahri), "Guliston yog'ekstraktsiya", "Kogon yog'ekstraktsiya", "Urganch yog'-moy", "Koson yog'ekstraktsiya", "Xo'jaylimoy", "Yog'gar" (Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy shahri), "Chimboymoy" aktsiyadorlik jamiyatlari. Korxonalarda jami 227 ming tonna o'simlik moyi ishlab chiqarildi (2000). O'rta Osiyoda juda qadimdan turli o'simliklar, moyli ekinlar urug'laridan yog'olish bilan shug'ullanib kelingan. Xom ashyo sifatida paxta chigit, kunjut, zig'ir, mahsar, yer yong'oq, danaklar va boshqalardan foydalanilgan. Yog'-moy mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish maqsadida qushma korxonalari tomonidan joriy yilda qariyb 5 trillion so'm, yanvar sentyabr oylari davomida 3,3 trillion so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Yil yakuniga qadar faqatgina uyushma tarkibidagi korxonalar tomonidan 220 ming tonna o'simlik moyi va 33,5 ming tonna margarin ishlab chiqariladi. 2022 yilda esa 233 ming tonna o'simlik moyi, 35,5 ming tonna margarin tayyorlanadi.

Keyinchalik ichki bozorda yog‘-moy mahsulotlari narxlari barqarorligini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan bir qator meyo'riy hujjatlar qabul qilindi, jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 29 aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Natijada, 2021 yil 1 maydan 31 dekabrgacha O‘zbekiston hududiga o‘simglik yog‘i, kungaboqar va zig‘ir urug‘i, shuningdek soya donini olib kirish hamda o‘simglik yog‘ini (paxta yog‘idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilindi. Respublika aholisining o‘simglik yog‘iga bo‘lgan yillik talabi 2020 yilda 400 ming tonnani tashkil etadi. Uning 280 ming tonnasi Respublikada ishlab chiqarilsa, qolgani import hisobidan qoplanishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda Respublikaga kungaboqar yog‘i hamda kungaboqar doni importning salmoqli qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “**O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida**”gi PF-4947-sonli farmonida moyli ekinlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017 yil 7 fevraldagagi 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining III ustuvor yo‘nalishida «...paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘sagan yerkarta kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish bo‘yicha tizimli choratadbirlar ko‘rish» belgilab berilgan». Bu hukumat tomonidan moyli ekinlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga aholining yog‘-moy mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga alohida e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Respublika yog‘-moy korxonalari tomonidan 2019 yilda 2,2-2,3 tonna moyli o‘simgliklarni qayta ishlangan, shu jumladan 2 mln. tonna paxta chigit va 300 ming tonna moyli o‘simgliklar. Vaholanki Respublikadagi 200 dan ziyod yirik va kichik yog‘- moy

korxonalarining ishlab chiqarish quvvati 5 million tonnani tashkil etadi. Bugungi kunda yog‘-moy korxonalarining eng katta muammolari bu hom ashyodir. Chunki yog‘-moy korxonalari 50 foiz quvvat bilan ishlab kelmoqda. Boshqa davlatlarda buning aksi Misol uchun Qozog‘istonda ishlab chiqarish quvvati 1,5 million tonna bo‘lib, xomashyo hajmi 6 million tonnadan iborat. Respublikamizda ananaviy paxta chigitini qayta ishlash hajmi qisqarib borayotganligi uchun noananaviy xom ashyolarda yog‘-moy mahsulotlarini olish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Mahsulot nomi	2016	2017	2018	2019	2020
Soya	7067,7	16792,4	19038,1	28416,1	22250,5
Kungaboqar	149388,8	142671,8	103924,8	147438,4	138479,7
Paxta	207733,3	220174,1	205671,1	203060,7	174586

**Xulosa** 2016-2020 yillarda 1011,2 ming tonna paxta yog‘i, 682 ming tonna kungaboqar yog‘i va 93,6 ming tonna soya yog‘i iste'mol qilingan. 2020 yilda aholini o‘simplik moyi iste'moli 2016 yilga nistaban 8 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

2016-2020 yillarda 6397,2 ming tonna paxta chigiti, 945,5 ming tonna kungaboqar doni hamda 78,9 ming tonna soya doni qayta ishlangan. 2019 yilda paxta chigitini qayta ishlash 2016 yilga nisbatan paxta chigiti 60 foizga , kungaboqar doni va soya doni qayta ishlash hajmi o‘rtacha 83 foizga qisqargan. Kungaboqar donini qayta ishlash 2020 yilda 2016 yilga nisbatan 400,5 foizga va soya donini qayta ishlash 495,2 foizga ortganini ko‘rishimiz mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Князев Е.А., Евдокимова Я.Ш. Бенчмаркинг для вузов: Учебнометодическое пособие. М.: Университетская книга, Логос, 2006. - 30 с.



2. Нэреш К. Молхотра. Маркетинговые исследования. Практическое руководство, 3-е издание.: Пер. с англ. — М.:Издательский дом "Вильяме", 2002. — 960
3. Haqberdievich K. D., Shavkiddinovich M. M. USE OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES IN THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-61.
4. Internet ma'lumotlari.
5. DJo'rayeva Dildora Sobirjonovna" O'zbekistonda yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning holati tahlili" \_Journal of marketing, business and management( JMBM)/SJIF FACTOR:4.28